

МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА РАҲБАР ХОДИМЛАР ОРҚАЛИ ТА'ЛИМ-ТАРБИЯНИ ЈАҲОН ТАЖРИБАСИ АСОСИДА ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРДА ШАКЛЛАНТИРИШ

Rustamova Xoshiyaxon Nasritdinovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 19-son DMTT direktori

Annatatsiya: ushbu maqolada ta'lim tarbiya jarayoni, ta'lim tarbiyani jahon tajribasini o'rgangan holda tashkil etish va ta'lim tarbiyani jahon tajribasi asosida shakllantirish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье описывается процесс образования, организация образования на основе мирового опыта и формирование образования на основе мирового опыта.

Abstract: This article describes the process of education, the organization of education based on world experience and the formation of education based on world experience.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, tajriba, Tarbiya jarayoni, tarbiyaviy maqsad, jahon tajribasi, milliy ruhda tarbiyalash.

Ключевые слова: воспитание, образование, опыт, образовательный процесс, образовательная цель, мировой опыт, воспитание в национальном духе.

Key words: education, education, experience, educational process, educational goal, world experience, education in the national spirit.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ijodiylik hissini mustahkamlash uchun o'zining materialga nisbatan hissiy munosabatining tashqi ifodasini saqlay bilish kerak. Buning uchun esa oynaga qarab so'zlash, fikran dars jarayonini his qilish, misollarni ko'proq keltirish, buyuk shaxslar faoliyatidan aniq vaziyatlarni keltirish hamda darsga tezda moslashish katta ahamiyatga ega. Pedagog o'ziga darsga kirishdan avval ko'rsatma (vazifa) berishni o'rganishi lozim.

Pedagog o'zida ijodiylik hissini shakllantirish va boshqarish uchun quyidagi tarzda muloqotlarni qo'llashi mumkin:

- ✚ men tinch-xotirjamman;
- ✚ men ishonch bilan dars o'ta olaman;
- ✚ bolalar meni tinglashadi;
- ✚ men darsga yaxshi tayyorlanganman;
- ✚ dars juda qiziqarli bo'ladi;
- ✚ bolalarning men bilan birga bo'lishlari juda qiziqarli;
- ✚ kayfiyatim yaxshi;



menga darsda ishlash yoqadi.

➤ U chet el pedagogik tajribasining ayrim ijobiy jihatlaridagina rus tarbiya tizimida foydalanish kerakligini qayd qilgan edi. L.Tolstoy har qanday chet el tarbiya tizimini Rossiyaga keltirishga keskin qarshi chiqqan edi. Chunki o'z "xalqi rioya qiladigan asosiy qoidalarni anglagan maktabgina yaxshi maktab bo'la

oladi"

➤ Atoqli mutafakkir Rossiyada rus tarixi va milliy xususiyatlaridan kelib chiquvchi xalq ta'limi tizimi yaratilmog'i kerakligini qat'iy turib talab qilgan edi.

Tarbiya jarayoni- o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

➤ tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsining tez rivojlanadigan davri – tarbiyalanuvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat

- o'qish
- mehnat
- ijtimoiy ishlar
- o'yin
- sport
- badiiy havaskorlik

Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan ma'naviy, madaniy, dunyoqarashdagi o'zgarishlar ayrim jihatlari bilan Sharq mamlakatlarining mustaqillikka chiqqan davrdagi holatini, G'arbiy Ovruponing Uyg'onish, o'zligini anglay boshlash davrini eslatadi. Kundalik turmushdagi, tafakkurdagi an'anaviylikning zamonaviylashuvi, demografik o'sish, shaharlarning yiriklashuvi, texnologiyada, bank ishlarida munosabatlarning o'zgarishi, yangi - tijoratchilar avlodining maydonga chiqishi, ishbilarmonlikning keng tarqalishi va boshqalar Uyg'onish davrining tavsifiy chizgilariga aylangan edi. Xorijiy tillarga, huquqshunoslikka, Vatan tarixiga qiziqishning ommaviy o'sishi maktab va tarbiya maqsadini keskin o'zgartirishning sharti bo'ldi.

Angliyadagi tarbiyaviy maqsad - jentelmenni tarbiyalash g'oyasi Fransiyada ham qabul qilinib, o'ziga xos tarzda amalga oshirildi. Bu quyidagicha ta'riflangan edi; "Fransiyada tarbiyadan maksad - o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o'z Vatanida qabul kilingan xush

xulqlik bilan uyg'unlashtirib, takomiliga etkazgan fransuzdir"1, Olmoniyada madaniy uyg'unish davrida amalga oshirilgan islohotlar maktab, tarbiya maqsadini belgilashga mahsuldor ta'sir ko'rsatib, Olmoniyaning milliy davlat sifatida rivojlanishiga katta turtki bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy yevropada uyg'unish davri ijtimoiy fanlar, xususan pedagogika fanining predmeti - tarbiya va uning mohiyati, maqsadi haqida dadil ilmiy fikrlar aytilganligi bilan ham e'tiborga molik. Bu fikrlar rang-barang bo'lib, tarbiya fonemonining turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

G'arbiy Ovrupo davlatlari - milliy davlat sifatida shakllanib bo'lgan edilar; ikkinchidan, G'arbiy Ovrupo millatlari o'z davlatlarida milliyliklariga xavf soluvchi, zarar etkazuvchi har qanday tashqi ta'sirdan holi edilar; uchinchidan, milliy g'ururni, tuyg'uni so'ndiruvchi milliy mustamlakalik azobini boshdan kechirmagan edilar. Ana shuning uchun ham milliylikni tiklash sobiq mustamlaka mamlakatlarning dastlabki ma'naviy ehtiyojiga aylanishi tabiiydir. Bu ehtiyoj er yuzidagi sobiq mustamlakachi mamlakatlarga emas, balki mustamlaka - "erli" xalqlarga xos bo'lganligi ana shu qonuniyatning dalilidir.

Afrikancha tarbiya. Maqsadi: yosh avlodni Afrika jamiyatida va Afrika sharoitida yashashga tayyorlash. Xalq donishmandligi ma'naviy, madaniy tajribasini avloddan-avlodga etkazib, afrikaliklarning (mustamlakalik darida) xo'rlangan qadr-qimmatini, milliy g'ururni saqlab qolib, tiklashga xizmat qildi va mustaqillik uchun kurashga tayyorladi. Afrikalik har bir bola – o'z qishlog'ining umumiy ma'naviy farzandi deb idrok qilinadi. Bola 6-7 yoshga kirguncha uning tarbiyasi bilan ona, 7 yoshdan oshgach, o'g'il bolani otasi yoki tog'asi, 10-11 yoshdan o'g'il-qizlar kasbga, 15-16 yoshdan oila qurishga tayyorlay boshlanadi. Habashiston, Gvineya, Tanzaniya, Senegal mamlakatlaridagi milliy uyg'unish, ta'lim va tarbiyani milliy asosga qurishda qarama-qarshiliklarga ham duch kelishdi. Bu qarama-qarshiliklardan biri – tafakkuri fransuzlashgan mahalliy milliy nigilistlar. Vatan istiqboliga befarq, ovrupotsentrizm tarafdorlarining milliy uyg'unishga qarshi turishlari tufayli sodir bo'ldi. Bu haqda Niger Prezidenti Bubu Ama 1968 yili "qora rangli fransuzlar"dan ranjib, "milliy madaniyatimizning qora tanli fransuzlar tomonidan xo'rlanishi va rad etilishi bizning o'zligimizdan uyalishimizga olib keldi", - degan edi.

Yapon milliy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan ayrimlari:

✚ milliy birlik, yaponlarning jamoa, urug' kollektivchilligi umummilliy darajada namoyon bo'ladi: kechagina bir-biriga raqobat qiluvchilar millat manfaatiga dahldor vaziyatda birdaniga bir-birini qo'llay boshlaydilar;

✚ jamoa ming ko'zli devor bo'lib, har bir yaponning hatti-harakatini kuzatadi, uning hatti-harakatidagi axloqiy qadriyatlarning sofligini nazorat qiladi... Yapon jamiyati axloqiyligining siri ana shunda, deb hisoblashadi;

✚ rostgo'ylik, bag'rikenglik sifatlarini tarbiyalashga favqulotda ahamiyat beriladi;

✚ hierogliflar ataylab maydalab yoziladi. Ularni qiynalib yodlash bolada ko'z qobiliyati(ko'rganini esda saqlash)ni rivojlantiradi. Hierogliflarni ko'p martalab, diqqat bilan ko'chirish o'quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi;

✚ maktablarda "yapon axloqi" darsi maxsus o'tiladi. Bolalar asta-sekin xuddi kattalardek salomlashishga, hatti-harakatlar qilishga mashq qildirila boriladi. Agarda biror o'quvchi milliy axloq qoidalarini buzsa, bolalar uni "g'alati yapon" deyishadi. Keyinchalik ham u o'z xatolarini tuzatmasa, "begona" nomini oladi va bolalar undan uzoqlashadi;

✚ o'smirlik – yapon bolalari uchun eng qiyin – cheksiz dars tayyorlash va kelajak haqida qayg'urish yo'llaridir;

✚ bolalarning aksariyati ikki maktabda o'qishadi. Birinchi – asosiy, ikkinchi, Dzyuki – tushdan keyingi darsda o'tilgan mavzuni takrorlash va qo'shimcha materiallar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi.

✚ oilada qiz bola tarbiyasi bilan ko'proq ona, o'g'il bola tarbiyasi bilan ko'proq ota shug'ullanadi va h.k.

80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, pedagogikaga "umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash" tushunchasi kirib keldi. Shuni qayd qilish kerakki, umuminsoniy qadriyatlarni tushunishda, talqin qilishda ziddiyatlar bor edi. Masalan, 1992 yili "Pedagogika" oynomasi "Ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar" mavzusida suhbatni e'lon qildi. Suhbatda Rossiyalik professor B.S.Gershunskiy va AQSH ning Sharqiy Evropani o'rganish instituti rahbarlaridan biri Richard Sheyermanlar qatnashdi. R.Sheyerman eng oliy umuminsoniy qadriyat deb shaxsning uning o'zi uchun axloqiy deb hisoblangan hatti-harakat erkinligini qayd qildi. Ya'ni o'quv-tarbiya jarayonining har bir bosqichida, bolaning yoshidan qat'iy nazar uning erkinligi cheklanmasligi kerak. Lekin R.Sheyerman shaxsning kimdan, nimadan erkin bo'lishi kerakligini tushuntirib bera olmadi. Aksincha, axloqiy me'yorlarni belgilashda muvofiqlikning yo'qligi amerika yoshlari orasida borib turgan axloqsizlikka sabab bo'lmoqda, deya o'zini o'zi rad etadi. Jumladan, AQSH da o'g'il bolalar, o'smirlar orasida vahshiylarcha bir-birini, o'z-o'zini o'ldirish keyingi 30 yil ichida 6 marta ko'paygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Daminov M.I p.f.n., dots. Sifatli ta'lim va fanlararo integratsiyaning ahamiyati" «TA'LIM TRANSFORMATSIYASI» 2023y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28 - fevraldagi PF-27-sonli Farmoni.
3. Karimova Madina Mo'minjon qizi "Ta'lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish" Ta'lim psixologiyasi 2024